



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-mart

151-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-martdagi PF–51-sonli Farmoni ijrosi hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 152-6-0-Q/25 -sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-martdagi PF–51-sonli Farmoni ijrosi hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 152-6-0-Q/25 -sonli qarorida belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21<sup>1</sup> -moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-martdagi PF–51-sonli Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 152-6-0-Q/25 -sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:  
maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruvning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

sifatli ta’lim berishda respublika, hududiy, tuman va shahar darajasida yaxlit vertikal boshqaruv tizimini shakllantirishi;

maktabgacha va maktab ta’limining barcha darajasidagi boshqaruv tuzilmalariga yuqori salohiyatli, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakaga ega tashabbuskor nomzodlarni tanlov asosida jalb qilinishi;

maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich zamonaviy boshqaruv va menejerlik qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbar kadrlar bilan to‘ldirishi;

sifatli ta'lim berilishini ta'minlashda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallashlari, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan baholash monitoringini o'tkazishi;

tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish hamda ularga malaka toifalarini berishning yangi tizimini joriy etishi;

tizim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishi;

belgilanishicha:

a) tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzuridagi Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmatidan 810 ta shtat birligini maqbullashtirish hisobidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari jami boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 5002 taga yetkazilishi;

b) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari xodimlarining ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish tizimi joriy etilishi;

d) 2025-yil 1-sentabrdan boshlab:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori lavozimining bazaviy tarif stavkasi 20 foizga;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosari lavozimining bazaviy tarif stavkasi 15 foizga;

I va II guruhga kiruvchi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari lavozimlarining bazaviy tarif stavkalari tegishli III va IV guruhdagi umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktori o'rinbosari lavozimining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirish orqali oshirilishi;

e) 2026-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan direktor va uning o'rinbosarlariga faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) natijasiga ko'ra bazaviy tarif stavkalariga nisbatan tegishli 20 va 10 foiz miqdorida har oylik ustamalar belgilanishi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur Farmonda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbaini belgilasin va Davlat budjeti parametrlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rish;

ikki oy muddatda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida islohotlarni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining lavozim majburiyatlarini qayta ko'rib chiqishi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari xodimlarini 2025-yil 1-apreldan boshlab qo'shimcha rag'batlantirish shartlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ushbu Farmon ijrosi uchun zarur mablag'lar 2025-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'larni qayta taqsimlash orqali moliyalashtirilishi, 2026-yildan boshlab esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining Moliya iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov hamda Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**